

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

manbalar asosidagi tahlili.....	347
G.Sh.Shaydullayeva	
Turon sivilizatsiyasi aholisining ijtimoiy holatiga madaniy aloqalarning ta'siri.....	353
I.S.Aslonov	
O'zbekiston SSRda 1960–1980-yillarda qishloq xo'jaligi boshqaruvida byurokratik muammolar va davlat mulkini talon-taroj qilish holatlari.....	358
X.Burxanov	
Raqamli jamiyatda axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmlari	362
N.R.G'ulomova	
Ziyorat turizmi: uning tarixiy-tadrijiy rivojlanishi va o'ziga xos xususiyatlari.....	367
Sh.F.Allanazarov	
Komil Xorazmiy asarlarida ijtimoiy-iqtisodiy hayot tahlili.....	380
A.T.Toshmamatov	
O'zbek va ukrain xalqlari madaniy uyg'unligining tarixiy namoyasi: Xasanovlar oilasi misolida	380
Sh.A.Mirzamidinova	
Ashurali Zohiriyning shaxsiyati, faoliyati va merosi.....	384
O.B.Abdunosirova	
Amir Temur va Temuriylar davrida pul munosabatlari	390
M.X.Muzaffarov	
Vengriya va Turkiy dunyo: tarixiy bog'lanish va aloqalari.....	393
S.F.Norbekov	
Sharqiy Slavyan diasporasining Turkistondagi madaniy va ma'rifiy hayoti (1918–1924 yy.).....	398

ILMIY AXBOROT

I.T.Boltaboev	
Ijtimoiy adolat konsepsiyasining zamonaviy falsafiy talqinlari.....	409
I.S.Aslonov	
O'zbekiston SSRda 1945–1980 yillarda sug'orish va melioratsiya tizimining rivojlanishi	413
N.M.Axmadiyev	
Yangi O'zbekistonda kelesajak avlod tarbiyasiga gerontologik moyiyatini yanada rivojlantirish.....	417
B.X.Karimov	
Ongni boshqarish falsafasi hamda globallashuv sharoitida inson tafakkuri barqarorligini ta'minlashning zamonaviy konsepsiyasi	420
E.X.Zoyirov	
Ya'qub Charxiy ta'limotida borliq nazariyasi.	425
Sh.T.Abbosova	
Buyuk ipak yo'lida ilm-fan va madaniy muloqot rivoji.....	431
Sh.N.Niyozova	
Vatanparvarlikning ma'naviy-falsafiy mohiyati va shaxsning ijtimoiy-axloqiy yetukligi.....	434
Sh.X.Matyobubova	
Xorazm vohasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va ularning Yangi O'zbekistonga ta'siri.....	438
R.D.Dehqonov	
Teatr san'atining yoshlar ruhiy-axloqiy rivojlanishiga ta'siri	442
Z.T.Tursunboyev	
O'zbekistonda oilaviy zo'ravonlikning oldini olishda konformizm omilining ahamiyati	446
R.D.Dehqonov	
Yangi O'zbekistonda yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda teatr san'atining o'rni.....	451
Z.T.Tursunboyev	
“Tazyiq va zo'ravonlik” tushunchalari: turlari va oilada oldini olish mexanizmlari	455
N.T.Xolikov	
Globalashuv sharoitida egoistik tafakkur shakllanishini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari.....	459
Sh.A.Rasulova	
Harakatlar strtegiyasidan Yangi O'zbekistongacha: xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy mavqeini mustahkamlanishi	462
A.A.Aloxunov	



UO'K: 94(575.1)“19”:654.1/.19

TURKISTON O'LKASIDA FARG'ONA VILOYATI POCHTA-TELEGRAF TIZIMINING TARIXIY MANBALAR ASOSIDAGI TAHLILI**АНАЛИЗ ПОЧТОВО-ТЕЛЕГРАФНОЙ СИСТЕМЫ ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ В ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ НА ОСНОВЕ ИСТОРИЧЕСКИХ ИСТОЧНИКОВ****HISTORICAL SOURCE-BASED ANALYSIS OF THE POSTAL-TELEGRAPH SYSTEM OF THE FERGANA REGION IN THE TURKESTAN TERRITORY****Qosimov Dilmurodjon A'zamjonovich**
Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi**Annotatsiya**

Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Farg'ona viloyatida pochta-telegraf tizimining shakllanishi va rivojlanishini tarixiy manbalar asosida tahlil qilingan. Unga Rossiya imperiyasi pochta-telegraf boshqarmasi qarorlari, Turkiston general-gubernatorligi statistik hisobotlari, arxiv hujjatlari, yilnomalar, “Turkestarskiye vedomosti” materiallari hamda Genri Lansdellning safar xotiralari asos qilib olingan. Tadqiqotda pochta-telegraf xizmatlarining tashkil etilishi, moliyaviy ta'minoti, yo'llar va telegraf tarmoqlarining barpo etilishi, ular bilan bog'liq muammolarni yoritilgan. Shuningdek, aloqa tizimining Farg'ona vodiysi siyosiy-iqtisodiy hayotidagi o'rni va undagi imperiya ma'muriyati, mahalliy aholi hamda xorijiy kuzatuvchilarning roli aniqlangan.

Аннотация

В данной статье проанализировано формирование и развитие почтово-телеграфной системы в Ферганской области в конце XIX – начале XX веков на основе исторических источников. В качестве базовых материалов использованы решения Почтово-телеграфного главного управления Российской империи, статистические отчёты Туркестанского генерал-губернаторства, архивные документы, ежегодники, материалы газеты «Туркестанские ведомости», а также путевые заметки Генри Лансделла. В исследовании освещены вопросы организационного почтово-телеграфных служб, их финансового обеспечения, строительства почтовых дорог и телеграфных линий, а также проблемы, связанные с их функционированием. Кроме того, выявлена роль имперской администрации, местного населения и иностранных наблюдателей в становлении системы связи и её значении в социально-экономической жизни Ферганской долины.

Abstract

This article analyzes the formation and development of the postal-telegraph system in the Fergana Region during the late 19th and early 20th centuries based on historical sources. The study relies on the decisions of the Postal-Telegraph Main Administration of the Russian Empire, statistical reports of the Turkestan General-Governorate, archival documents, earbooks, materials from the newspaper “Turkestarskiye Vedomosti,” and the travel notes of Henry Lansdell. The research highlights the establishment of postal-telegraph services, their financial support, the construction of postal routes and telegraph lines, and the issues associated with their operation. It also identifies the role of the imperial administration, local population, and foreign observers in shaping the communication system and its importance in the socio-economic life of the Fergana Valley.

Kalit so'zlar: Farg'ona viloyati, pochta-telegraf tizimi, Turkiston o'lkasi, Rossiya imperiyasi, statistik hisobotlar, arxiv hujjatlari, yilnomalar, “Туркестанские ведомости”, Genri Lansdell, aloqa tarixi, pochta yo'llari, telegraf tarmog'i.

Ключевые слова: Ферганская область, почтово-телеграфная система, Туркестанский край, Российская империя, статистические отчёты, архивные документы, ежегодники, “Туркестанские ведомости”, Генри Лансделл, история связи, почтовые маршруты, телеграфная сеть.

Key words: Fergana region, postal-telegraph system, Turkestan Territory, Russian Empire, statistical reports, archival documents, earbooks, “Turkestarskiye Vedomosti”, Henry Lansdell, history of communications, postal routes, telegraph network.

KIRISH

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida aloqa tizimining shakllanishi Rossiya imperiyasi tomonidan amalga oshirilgan mustamlaka ma'muriy islohotlarining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'ldi. Ayniqsa Farg'ona viloyatida pochta-telegraf xizmatlarining tashkil etilishi hududning siyosiy boshqaruvi, harbiy nazoratni mustahkamlash, iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish

hamda viloyatning imperiya markazlari bilan integratsiyasini kuchaytirish uchun bevosita zarur infratuzilma bo'lib xizmat qildi.

Pochta-telegraf tizimining barpo etilishi jarayoni nafaqat administrativ tashkiliy choralarni, balki moliyalashtirish, kadrlar bilan ta'minlash, texnik vositalar etkazib berish, yangi pochta yo'llarini ochish va telegraf tarmoqlarini tortish kabi murakkab jarayonlarni ham o'z ichiga oladi. Ushbu jarayonlarning barchasi o'z davri uchun muhim bo'lgan rasmiy hujjatlar, statistik to'plamlar, sharhlar, davriy matbuot materiallari va chet ellik sayyohlarning kuzatuvlari orqali aks etgan.

Shu bois Farg'ona viloyatida pochta-telegraf tizimining tashkil topishi va rivojlanish tarixini o'rganishda tarixiy manbalar majmui – birlamchi arxiv hujjatlaridan tortib statistik to'plamlar va gazetalar hamda zamondoshlarning guvohliklariga qadar – hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ularning ilmiy tahlili orqali pochta-telegraf tizimining shakllanish bosqichlari, hududiy xususiyatlari, iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi o'rni hamda imperiya ma'muriyati bilan mahalliy aholi o'rtasidagi munosabatlar aniq tasvirlanadi.

Mazkur maqola ana shu tarixiy manbalarga tayangan holda Farg'ona viloyatida pochta-telegraf tizimining paydo bo'lishi, rivojlanishi va uning Turkiston o'lkasidagi umumiy aloqa infratuzilmasi uchun tutgan o'rnini tizimli ravishda tahlil qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Farg'ona viloyati pochta-telegraf xizmati tarixiga oid manbalarni bir necha asosiy guruhlariga ajratish mumkin: Rossiya imperiyasi pochta-telegraf bosh boshqarmasining qarorlari va sharhlari; Turkiston general-gubernatorligi hamda Farg'ona viloyatining statistik hisobotlari, yilnomalari va sharhlari; Arxiv hujjatlari; Davriy matbuot materiallari; Chet ellik sayyoh va elchilarning safar xotiralari.

Mazkur manbalar ichida Rossiya imperiyasi pochta-telegraf bosh boshqarmasining qarorlari va sharhlari alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular mavzuni o'rganishda eng muhim birlamchi manbalar sirasiga kiradi. Bu hujjatlar qolgan manba guruhlarida uchraydigan ma'lumotlarning mazmunan to'ldirilishi va rasmiy-huquqiy asos bilan mustahkamlanishida muhim rol o'ynaydi.

Buning sababi shundaki, Farg'ona viloyati yilnomalari, sharhlar va statistik to'plamlarida asosan hudud bo'yicha qabul qilingan va yuborilgan jo'natmalar soni, bepul jo'natmalar, banderollar, pul o'tkazmalari, ularning umumiy qiymati va miqdoriy ko'rsatkichlari qayd etiladi[34]. Ular pochta-telegraf xizmatining amaliy faoliyati to'g'risida umumiy tasavvur beradi.

Shu bilan birga, Rossiya imperiyasi pochta-telegraf bosh boshqarmasi qarorlari va sharhlari mazkur ma'lumotlarni sezilarli darajada chuqurlashtiradi: ularda pochta-telegraf xizmatlarining turli shakllari, ularni amalga oshirish tartibi, sarflangan mablag'lar, xizmatlarning rasmiy tariflari, pochta va telegraf operatsiyalarining moliyaviy yuklamalari, shuningdek kimlarga davlat hisobidan bepul xizmat ko'rsatilishi mumkinligi haqida batafsil ma'lumot beriladi[20-33]. Natijada bu hujjatlar butun tizimning huquqiy-meyoriy poydevorini ochib beradi hamda statistik to'plamlarda uchraydigan raqamlarning mazmuniy talqinini to'ldiradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Turkiston o'lkasi general-gubernatori lavozimida ishlagan K.P. fon Kaufmanning 1867-yil 7-noyabr – 1881-yil 25-mart oralig'idagi faoliyati aks etgan to'liq hisobot loyihasida ham Farg'ona viloyati pochta-telegraf boshqarmasi to'g'risida ma'lumotlar berilgan[41]. Loyihaning kirish qismida K.P. fon Kaufmanning betobligi sababli "Aloqa vositalari va qurilish ishlari" hamda "Xalq ta'limi; axloq va umumiy xulosalar" bo'limi tugallanmay qoladi. Shunday bo'lsa-da, Kaufmanning vafotidan keyin 1885-yilda nashr etiladi. Ushbu loyihada 1867-1881-yillardagi Turkiston o'lkasi pochta-telegraf boshqarmasi daromadlari va harajatlari summasi keltirilgan[41:482-487]. Ushbu raqamlarni Farg'ona viloyati pochta-telegraf boshqarmasi daromadlari va harajatlari solishtirilsa, viloyatning o'lka boshqaruvi hamda iqtisodiyotidagi ulushi kelib chiqadi.

Arxiv materiallaridan keyin Farg'ona viloyati pochta-telegraf tizimlari haqida batafsil ma'lumotlar beruvchi manbalar guruhi Farg'ona viloyati statistik hisobotlari, yilnomalari va sharhlaridir. Ushbu to'plamlarda Farg'ona viloyati tashkil etilgandan boshlab har yili vodiyni siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohadagi holati bilan birgalikda pochta-telegraf xizmati to'g'risida qimmatli ma'lumotlar berib borilgan[18; 34].

Farg'ona viloyati sharhlarida hisobot yili davomida pochta-telegraf xizmatining daromadlari, xarajatlari, yil davomida amalga oshirilgan xizmatlar miqdori shaharlar kesimida ma'lumot beriladi. Masalan, 1892-yilda Farg'ona viloyatida qabul qilingan shaharlardan tashqaridagi pullik, qiymatli va jo'natmalarning umumiy summasi 13424231 rublni tashkil etgan. Viloyatda yuborilgan pullik, qiymatli va jo'natmalarning umumiy summasi 19210045 rubl 30 k.ni tashkil etgan[35:62-63]. Farg'ona viloyati

TARIX

sharhlari hajm jihatidan katta manbalar sirasiga kiradi hamda bu sharhlar 1882-yildan 1916-yilgacha doimiy ravishda nashr etib borilgan.

1882-yilda imperatorning maxfiy maslahatchisi Girs Turkiston general-gubernatorligini taftish qiladi. Uning hisobotidan Farg'ona viloyati pochta-telegraf tizimi haqidagi muhim faktlar va tanqidlar joy olgan. Hisobotda, Turkiston o'lkasida mavjud bo'lgan barcha pochta yo'llaridan faqat bitta uchastkasi qolgan, ya'ni Xo'jand va Qo'qon shaharlari o'rtasida 120 verst bo'lib, u erda pochta tashuvlarini saqlash bo'yicha shartnoma tuzilgan bo'lib, bu yo'nalish bo'yicha xizmat ko'rsatish Farg'ona viloyati harbiy gubernatori boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi, deyiladi. Shu bilan birga, hisobotda arxiv hujjatlari uchramaydigan ba'zi jihatlar ham qayd etilgan. Masalan, 1883-yil fevralda Xo'jand va Qo'qon shaharlari o'rtasida 120 verst masofadagi pochta tashuvlarini amalga oshirish bo'yicha savdogar Shamsiddinov bilan shartnoma tuzilganligi qayd etiladi. Ammo noma'lum sabablarga ko'ra bu shartnoma 1883-yil may oyida hukumat qarori bilan bekor qilinadi[19:180].

Farg'ona viloyatini telegraflashtirish ishlari qachondan boshlanganligi, bu tarmoqni tortib chiqish imperiya g'aznasiga qanchaga tushganligi, qaysi savdogarlar zaruriy materiallarni etkazib berganligi alohida qayd etilgan. Unga ko'ra Farg'ona viloyatini telegraflashtirish ishlari uchun 86920 rubl ajratilganligi qayd etilgan. Shuningdek, 1875-yil Xo'janddan Qo'qonga 120 verst uzunlikdagi telegraf liniyalarining qurilganligi ham hisobotda uchraydi[19:189].

Yana bir hisobot podpolkovnik V.L.Grombchevskiyga tegishlidir. "Доклад Подполковника В. Л. Громбчевского читанный в Николаевской Академии Генерального Штаба 14 марта 1891 г." nomli hisobotida Farg'ona viloyati pochta-telegraf xizmatlari uchun asosiy o'rin tutgan yo'llar va tog' dovonlari to'g'risida ma'lum qiladi[3].

"Ежигодникъ Ферганской области" viloyat statistika qo'mitasining 1901-yil 27-sentabrdagi qarori bilan nashr etila boshlangan. "Yilnoma"da o'z asarlarini chop etish istagida bo'lganlarga viloyat harbiy gubernatori quyidagi taklif bilan murojaat qiladi: "Farg'ona viloyati aholi turmushi, uning iqtisodiy hayoti, sanoati, irrigatsiyasi, tabiati kabi xususiyatlarga boy, ularni o'rganish kitobxonlar ommasida katta qiziqish uyg'otishi mumkin", – bu qiziqish ma'muriyat uchun juda foydali edi. O'sha vaqtlarda, Farg'ona viloyati ilmiy adabiyot uchun ko'p e'tibor bermagan va faqat Middendorf, Fedchenko, Seversov, Nalivkin hamda Kushelevskiy o'z mutaxassisligi bo'yicha Rossiya Turkistonining ushbu qiziqarli, muhim qismi bilan tanishtiradilar. Ma'lum bir muammolarni o'rganish bilan shug'ullanadigan odamlarga o'z asarlarini mahalliy organ – "Yilnoma"da nashr etish imkoniyatini berishadi[2]. Farg'ona viloyati yilnomalarida ham pochta-telegraf tizimi to'g'risida muhim ma'lumotlar berib borilib, arxiv manbalarini yanada to'ldirishga xizmat qiladi. 1901-yildan boshlab e'lon qilib borilgan ushbu yilnomalarda pochta-telegraf xizmatlarining Farg'ona viloyatining hududlar bo'yicha joylashgan idoralari, ularni boshqaruvchi barcha amaldorlar ismi sharifi, pochta-telegraf xizmatlarining iqtisodiy hayotidagi o'rni ko'rsatib o'tiladi. Masalan, Qo'qon shahar III klass pochta-telegraf idorasiga 1901-yilda Genrix Adolf Genrixovich Dresh rahbarlik qilgan, Vladimir Fridrixovich Ernis uning yordamchisi hisoblangan. 1902-yilda esa Qo'qon shahar III klass pochta-telegraf idorasini A.G.Petrov boshqargan[18].

Farg'ona viloyati pochta-telegraf xizmatlari tarixini tadqiq etishdagi asosiy manbalar guruhi arxiv materiallari hisoblanadi. Hozirgi kunda O'zbekiston Milliy arxivi 19-fond, 1-ro'yxat 23, 127, 264, 300, 305, 416, 645-yig'majildlarida, 423, 459, 461-yig'majildlarida, 43-fond, 2-ro'yxat 38, 40, 46, 48/292, 492, 493, 43, 249-yig'majildlarida, 249-fond, 1-ro'yxat 4a, 13, 27a, 37-yig'majildlarida Farg'ona viloyati pochta-telegraf xizmatlari tarixiga doir qimmatli hujjatlar saqlanadi[4-17]. Jumladan, Farg'ona viloyati harbiy gubernatori Skobelevning 1876-yil 7-iyunda Turkiston general-gubernatoriga yozgan bildirishnomasida sobiq Qo'qon xonligi hududida 1876-yil 12-apreldan №84 buyruqqa asosan vaqtinchalik pochta xizmati yo'lga qo'yilgani ma'lum qiladi. Farg'ona viloyati muvaqqat pochta tizimi markazi Qo'qonda bo'lgan Andijon, Namangan, Marg'ilon va O'sh stansiyalaridan tashkil topgan[11].

Tashkiliy masalaga ham arxiv hujjatlarida alohida o'rin ajratilgan. Masalan, pochta idorasini turli chiqimlar, isitishga 525 rubl hamda ijaraga bino olish uchun 300 rubl miqdorida mablag' ajratiladi[10].

Shu bilan birga, 1876-yil 26-oktabrda Farg'ona viloyati harbiy gubernatoriga Toshkentdan yuborilgan "О введение штатовъ почтовыхъ учреждений въ Ферганской области" sarlavhali yana bir arxiv hujjatida hujjatda ajratiladigan summa pochta qaysi tarmoqlariga taqsimlanishi

keltiriladi[4]. Unga ko'ra, 4700 rubl quyi amaldorlar va xizmatchilarni saqlash, 50 rubl pochta kanselyariyasini ta'minotiga beriladi[5].

Umuman olganda O'zR. MDA. 1-ro'yxat, 19-fond, 23-yig'majild, 16 varaqdan iborat bo'lgan "Farg'ona viloyatida muvaqqat pochta boshqarmasini tashkil etish to'g'risida" gi hujjat, Turkiston general gubernatori buyruqlari viloyatda pochta xizmatini tashkil etish, moliyaviy qo'llab quvvatlash, kreditlar¹ ajratishga huquqiy asos yaratiladi[9].

Arxiv hujjatlarida viloyatdagi telegraf tarmoqlariga qasddan zarar etkazish holatlari ko'paygani hisobga olinib, Farg'ona harbiy gubernatorining 13-iyun 1889-yil № 4172, uyezd boshliqlariga yuborgan xatida shunday jumalarni o'qish mumkin:

Farg'ona viloyati uyezd boshliqlariga

Turkiston pochta-telegraf okrugi boshlig'ining bayonotiga ko'ra, ko'p hududlarda mahalliy aholi tomonidan telegraf liniyalariga ataylab zarar etkazilishi telegraf xabarining o'zida uzilishga sabab bo'lgan.

Umuman olganda, telegraf xabarlarining davlat ahamiyatini inobatga olgan holda, ularga etkazilgan zarar Jinoyat kodeksi 1140-modda bo'yicha jinoyat hisoblanadi. Va telegrafga qasddan shikast etkazishda aybdorlar shaxsan va davlat tomonidan barcha maxsus huquq va imtiyozlardan mahrum etilishi va Sibirda umrbod surgun qilinishi yoki tovon to'lanishidan qat'i nazar, Jinoyat kodeksi muvofiq axloq tuzatish qamoqxonasiga qaytarilishi mumkin. Xuddi shu kodeksning 1147-moddasi, zararni tuzatish xarajatlari va etkazilgan zarar va yo'qotishlar uchun uyezd boshliqlari ushbu masalaga alohida e'tibor qaratib, shu maqsadda quyidagi farmoyishlar beradi.....[13].

"Туркестанские ведомости" gazetasi sahifalarida ham Fargona viloyati pochta-telegraf xizmati haqida muhim ma'lumotlar bizgacha etib kelgan. Jumladan, Farg'ona viloyati tashkil etilishi arafasida vodiydagi pochta xizmatlari Sirdaryo viloyati pochta boshqarmasi tomonidan amalga oshirilganligi[36; 37; 38], Farg'ona viloyati tashkil etilgach, pochta yo'nalishlari, ular orasidagi masofa va pochta xizmatlari tashkil etilganligi to'g'risidagi xabarlar e'lon qilib borilgan[40]. Masalan, gazetaning 1876-yil 30-mart 13-sonida sobiq Qo'qon xonligi hududidagi rus harbiy kuchlari qo'mondoni general-leytenant Kalpakovskiy pochta qatnovi va 7 ta stansiya jadvalini tasdiqlaganligi haqidagi xabar e'lon qilingan[39].

Chet ellik sayyoh va elchilarning safar xotiralari ham vodiya tashkil etilgan pochta-telegraf xizmatlari tarixini tadqiq etishda alohida o'ringa ega. 1885-yilda Turkistonga ingliz sayyohi Henry Lansdell tashrif buyuradi. 1882-yilda "Russian Central Asia, including Kuldja, Bokhara, Khiva, and Merv" nomi bilan kitob holda, 1887-yilda esa "Harper's Magazine" jurnalida sayohati natijalarini hisobot tarzida e'lon qiladi. Lansdell ushbu asarida so'nggi paytlarda inglizlarning diqqatini tortgan mavzu – O'rta Osiyodagi rus hukmronliklari haqida ko'plab ma'lumotlarni taqdim etadi. Ikkita jildda nashr etilgan asarda Gulja, Buxoro, Xiva va Marv hududlari haqida hikoya qiladi. Turkistonga inglizlar kamdan-kam tashrif buyurgan va doktor Lansdellning fikricha, ba'zi joylarda u birinchi bo'lganini da'vo qiladi. Uning sayohatining asosiy maqsadi xayriya – ayniqsa Rossiya imperiyasi qamoqxonalari diniy adabiyotlarni tarqatish edi, lekin bu kitobni yozishda u talabalar, shuningdek, keng kitobxonlar talablarini hisobga olgan holda, "din, geografiya, geologiya, hayvonot va o'simlik dunyosi, xalqning xususiyatlari, ularning hukumati, tili va boshqalarga to'xtalib o'tadi. Asarda nafaqat ko'plab eslatmalar, balki butun boblar, shuningdek, "Turkiston faunasi va florasiga oid faqat rus tilida nashr etilgan asarlardan olingan qo'shimchalar" ham berilgan. Biz uchun eng muhim jihati Lansdellning Gulja va Farg'ona vodiysi pochta-telegraf xizmati, tizimda ishlovchilar bilan olib borgan suhbatlari hisoblanadi[1:189-206]. Lansdellning Gulja haqidagi qaydlarida shunday fikrlar bor: "Choy vaqtiga kelib Qo'nur-Ulenga etib keldik va vokzalda Ivirges chodirida bir oy yashab, kumisdan davolanish uchun kelgan nogiron telegrafchini uchratdik. Biz kabi hosilsiz dashtdan kelayotganda, o'zi bilan o'sha erning mevalaridan olib kelib, nonimizga rohat qo'shgan qovun sovg'a qilgan edi" [1:191]. Yana bir o'rinda Sharqiy Turkistondagi telegraf faoliyati haqida: "Men ba'zi shaxslarning mavjudligidan foydalanib, general Kolpakovskiyga telegramma yo'lladim, chunki biz haligacha uning Cho'l hukumati chegarasiga etib bormagan edik va Semirechiyadan Turkistonga o'tmoqchi edik. Janobi Oliylarining g'amxo'rligi va e'tiboridan qanchalik qarzidor ekanligimni his qildim. Hammasi

¹ Turkiston general gubernatori Farg'ona viloyatida pochta xizmatini tashkil etishni moliyaviy qo'llab quvvatlash uchun har bir pochta stansiyasiga 1876-yil 18-oktabrda 200 rubl miqdorida kredit ajratishni ko'zda tutuvchi qaror chiqaradi. Bu hujjat asosan 1877-yil yanvar oyidan kuchga kirishi ko'zda tutilgan. Bu haqida qarang: ЎзР. МДА. 1-рўйхат, 19-фонд, 23-йигмажилд, 13-варақ.

TARIX

yaxshi o'tdi va men unga minnatdorchilik bildirish va yashashimdan qanchalik xursand bo'lganimni aytish uchun telegramma orqali xat yubordim" [1:362]. Bu o'rinda vodiya pochta-telegraf xizmatlari tashkil etilishida muhim o'rin tutgan Kalpakovskiyning tilga olinishi davriy matbuot nashrlarida ham uchraydi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Farg'ona viloyatida pochta-telegraf tizimi XIX asr oxiri–XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida olib borilgan ma'muriy-siyosiy islohotlarning tarkibiy qismi sifatida shakllangan. Arxiv hujjatlari va rasmiy statistik to'plamlar tahlili mazkur tizimning dastlab 1876-yilda muvaqqat pochta stansiyalari asosida tashkil topganini, keyinchalik telegraf liniyalari tortilishi bilan birgalikda bosqichma-bosqich kengayganini tasdiqlaydi. Girs, Kaufman va Grombchevskiy hisobotlari pochta va telegraf xizmatlarining harbiy, strategik va iqtisodiy ahamiyatini ochib beradi. Davriy matbuot manbalari esa xizmatlarning amaliy ishlashi, aholi bilan munosabatlar va tarmoqning kundalik hayotdagi o'rnini yoritadi.

Chet ellik sayyohlar, xususan Genri Lansdellning kuzatuvlari viloyatdagi aloqa tizimining xalqaro nuqtai nazardan baholanishiga imkon beradi. Natijada Farg'ona viloyati pochta-telegraf tarmog'i imperiya boshqaruv tizimini mustahkamlash, savdo-iqtisodiy aloqalarni faollashtirish va viloyatning boshqa hududlar bilan integratsiyasini kuchaytirishda hal qiluvchi omil bo'lganini ko'rish mumkin. Shunday qilib, turli turdagi tarixiy manbalar uyg'un tahlili pochta-telegraf tizimining shakllanish jarayonini kompleks tarzda yoritishga imkon berdi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Henry Lansdell. Russian Central Asia, including Kuldja, Bokhara, Khiva, and Merv. – London: Sampson Low and Co., 1885. – P. 189-206.
2. http://biblioteka.kg/index.php/book/show_book/195
3. https://drevlit.ru/docs/central_asia/XIX/1880-1900/Grombcevsij/text.php
4. O'zR. MDA. 1-ro'yxat, 19-fond, 127-yig'majild, 1-2-3-varaq.
5. O'zR. MDA. 1-ro'yxat, 19-fond, 127-yig'majild, 1-2-4-varaq.
6. O'zR. MDA. 1-ro'yxat, 19-fond, 127-yig'majild, 1-varaq.
7. O'zR. MDA. 1-ro'yxat, 19-fond, 181-yig'majild, 1-varaq.
8. O'zR. MDA. 1-ro'yxat, 19-fond, 23-yig'majild, 11-varaq.
9. O'zR. MDA. 1-ro'yxat, 19-fond, 23-yig'majild, 13-varaq.
10. O'zR. MDA. 1-ro'yxat, 19-fond, 23-yig'majild, 1-varaq.
11. O'zR. MDA. 1-ro'yxat, 19-fond, 23-yig'majild, 2-varaq.
12. O'zR. MDA. 1-ro'yxat, 19-fond, 2644-yig'majild, 1-varaq.
13. O'zR. MDA. 1-ro'yxat, 19-fond, 2740-yig'majild, 14-varaq.
14. O'zR. MDA. 1-ro'yxat, 19-fond, 2740-yig'majild, 28 varaq.
15. O'zR. MDA. 1-ro'yxat, 19-fond, 300-yig'majild, 1-varaq.
16. O'zR. MDA. 1-ro'yxat, 19-fond, 634-yig'majild, 1-varaq.
17. O'zR. MDA. 1-ro'yxat, 19-fond, 645-yig'majild, 1-varaq.
18. Ежегодник Ферганской области. – Нов. Маргелан: Ферганского обл. стат. ком., 1902-1904.
19. Отчёт ревизующаго, по Высочайшему повелению, Туркестанский край, Тайнаго Советника Гирса. 1882г.
20. Постановления по телеграфной части. Пг., 1916. – 4., 68, VII, 104 с.
21. Почтово-телеграфная статистика за 1888 год. СПб., 1890. – 2., II, VII, 31 е., прил.
22. Почтово-телеграфная статистика за 1889 год. СПб., 1891. – 6., VIII, 31 е., прил.
23. Почтово-телеграфная статистика за 1890 год. СПб., 1892. – XIII, 31 е., прил.
24. Почтово-телеграфная статистика за 1891 год. СПб., 1893. – XVIII, 31 е., прил.
25. Почтово-телеграфная статистика за 1892 год. СПб., 1894. – XXIII, 41 е., прил.
26. Почтово-телеграфная статистика за 1893 год. СПб., 1895. – XXIII, 41 е., прил.
27. Почтово-телеграфная статистика за 1894 год. СПб., 1896. – XV, 39 с.
28. Почтово-телеграфная статистика за 1895 год. СПб., 1897. – 4., XI, 41 с.
29. Почтово-телеграфная статистика за 1896 год. СПб., 1897. – 4., VI, 41 с.
30. Почтово-телеграфная статистика за 1897 год. СПб., 1898. – 4., XIV, 41 с.
31. Почтово-телеграфная статистика за 1898 год. СПб., 1900. – IV, XX, 45 е., табл.
32. Почтово-телеграфная статистика за 1905 год. СПб., 1907. – 4., XXVII, 57 с.
33. Почтово-телеграфная статистика за 1906 год. СПб., 1908. – 4., XXIX, 57 с.
34. Статистический обзор Ферганской области за 1882-1916 года.
35. Статистический обзор Ферганской области за 1892 года. – Нов. Маргеланъ: Ферг. обл. правл., 1894.
36. Туркестанские ведомости 1876, № 10 (9 марта).
37. Туркестанские ведомости 1876, № 11 (16 марта).
38. Туркестанские ведомости 1876, № 12 (23 марта).
39. Туркестанские ведомости 1876, № 13 (30 марта).
40. Туркестанские ведомости 1876, № 15 (20 апрель).

41. Туркестанского генерал-губернаторства. 7 ноября 1867 25 марта 1881 г. – СПб.: Издание военного ученого комитета Главного штаба, 1885. – 4, VIII, 503 с.